O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SAMARQAND VILOYATI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI HOKIMINING QARORI

Kattaqo‘rg‘on t., A.Navoiy k., 1-uy.

2022 - yil 21 - sentabr 411-7-96-Q/22 Kattaqo‘rg‘on tuman hokimligi

Tumandagi umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari yoqasida joylashgan davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga piyodalar o‘tish yo‘lagida ayrim ogohlantiruvchi, taqiqlovchi va axborot-ko‘rsatgich belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida

Tuman Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i A.Ochilovning murojaatida qo‘yilgan talablarni qanoatlantirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-190-son, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-son Qarorlari va “Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida”gi Qonunining 16-moddasida hamda tuman adliya bo‘limining 2022-yil 14-sentabrdagi 11-son xulosasida ko‘zda tutilgan asoslar mavjudligini nazarga olib va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 25-moddalariga asoslanib

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Tuman Ichki ishlar bo‘limi A.Ochilovning tuman hokimligiga 2022-yil 12-avgustda 532-raqamli xati bilan qilgan murojaati o‘rganib chiqilgan deb hisoblanib, undagi talablar qanoatlantirilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-190-son, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-son Qarorlari va “Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida”gi Qonunining 16-moddasi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Tuman yo‘llardan foydalanish foydalanish unitar korxonasi (Y.Rustamov) balansidagi umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari bo‘yida joylashgan tuman Maktabgacha ta’lim bo‘limi tasarrufidagi davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga piyodalar o‘tish yo‘lagiga ilovadagi ro‘yxat bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-son Qarorida ko‘rsatilgan 1.20-, 1.21-, 1.31-, 3.24- (50 km/s), 3.24 (30 km/s) va 5.16.2-yo‘l belgilari (keyingi o‘rinlarda – “**ayrim yo‘l belgilari**”) o‘rnatilsin hamda unga ko‘ra tuman yo‘llardan foydalanish foydalanish unitar korxonasi (Y.Rustamov) zimmasiga:

- tuman Ichki ishlar bo‘limi Jamoat xavfsizligini saqlash yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi (S.Amanov), tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (I.Nurmuradov), tuman Maktabgacha ta’lim bo‘limi (U.Ernazarov), tuman hokimligi Axborot xizmati (J.Saparov), “Kattaqo‘rg‘on: kecha va bugun” gazetasi (O‘.Usmonov) lar bilan birgalikda ayrim yo‘l belgilari o‘rnatiladigan vaqti va joyi to‘g‘risida avtomobil yo‘llaridan foydalanuvchilarni oldindan ogohlantirish jadvalini tuzish va uni ommaga yetkazish masalasini hal qilish;

- tuman Ichki ishlar bo‘limi Jamoat xavfsizligini saqlash yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi (S.Amanov), tuman Maktabgacha ta’lim bo‘lim (U.Ernazarov) lari bilan birgalikda mazkur bo‘lim tasarrufidagi davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining tarbiyalanuvchilari, pedagog xodimlarining xavfsizligini ta’minlash;

- tuman adliya bo‘limi (O‘.Hakimov) va tuman yuridik xizmat ko‘rsatish markaz (S.Mamarajabov) lar bilan birgalikda mazkur qarorni ijrosi uchun sarflanadigan zarur hom-ashyolarni maqsadli va samarali foydalanishga doir shartnomaviy-moliyaviy munosabatlarga takliflar kiritish kabi vazifalar yuklatilsin.

4. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kirgan deb hisoblansin.

5. Mazkur qarorning ijrosi ustidan nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosarlari L.Raxmonov va D.Ismailovlar hamda tuman Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i A.Ochilovlar zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi v.b. **J.Nasriddinov**

Kattaqo‘rg‘on tuman hokimining
2022 yil 21 sentabrdagi
411-7-96-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Tumandagi umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari yoqasida joylashgan davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga piyodalar o‘tish yo‘lagida ayrim yo‘l belgilarini o‘rnatish ro‘yxati*

№	DMTT to‘g‘risida ma’lumot			Yo‘l holati
	№	Joylashgan manzil		
		MFY	Qishlog‘i/ko‘chasi	
1	2	“Bog‘ot”	Bog‘ishamol ko‘chasi	Asfaltlangan
2	3	“Jumaboy”	Jumaboy qishlog‘i	Asfaltlangan
3	4	“Kattaming”	Kattaming qishlog‘i	Asfaltlangan
4	7	“Nayman”	Nayman qishlog‘i	Asfaltlangan
5	10	“Kadan”	Kadan qishlog‘i	Asfaltlangan
6	18	“Jumaboy”	Chig‘atoy qishlog‘i	Asfaltlangan
7	24	“Yakkabog‘”	Iska qishlog‘i	Asfaltlangan
8	34	“Qirg‘iz”	Qirg‘iz qishlog‘i	Asfaltlangan
9	36	“Tavaron”	Chubboz qishlog‘i	Asfaltlangan
10	40	“Qumoq”	Qumoq qishlog‘i	Asfaltlangan
11	43	“Qoqsoy”	Chirik qishlog‘i	Asfaltlangan
12	46	“Tarnov”	Jarboshi qishlog‘i	Asfaltlangan
13	50	“Oyjon”	Oyjon qishlog‘i	Asfaltlangan
14	51	“Mullatog‘ay”	Chim qishlog‘i	Asfaltlangan
15	53	“Mullako‘rpa”	Mullako‘rpa qishlog‘i	Asfaltlangan
16	54	“Olmazor”	Abulqosim qishlog‘i	Asfaltlangan
17	55	“Fayzikent”	Fayzikent qishlog‘i	Asfaltlangan
18	57	“Burgansoy”	Burgansoy qishlog‘i	Asfaltlangan
19	60	“Mullatog‘ay”	Xo‘jaqo‘rg‘on qishlog‘i	Asfaltlangan
20	61	“Qo‘shtepa”	Qo‘shtepa qishlog‘i	Asfaltlangan

* *Piyodalar o‘tish yo‘lagiga ayrim yo‘l belgilarini o‘rnatish lozim bo‘lgan DMTT lar ro‘yxati tuman yo‘llardan foydalanish foydalanish unitar korxonasining texnik shartiga asosan tuzilgan.*